



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGI
DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI MARKAZI
SURXONDARYO VILOYATI FILIALI**

Manzil: 190104, Termiz shahar, Amir Temur ko'chasi, 69-uy, Tel: 76-221-47-75

**DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI
XULOSASI**

TARTIB RAQAM 01-02/10-1699

HUJJAT TURI Atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi ariza loyihasi

**Davlat ekologik ekspertizasi buyurtmachisi: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
EKOLOGIYA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI
VAZIRLIGI BINOga berildi.**

STIR: 310700230

Obyekt nomi: Boysun tumanidagi “Qo'shshatut” davlat o'rmon xo'jaligi”ning ko'kalamzorlashtirish hududini “Sug'orish” qudug'i tarmog'i qurilishining “Atrof muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonot loyihasi”

**Loyihalarini ishlab chiquvchi nomi: OOO OLCHOV NAZORAT MASULIYATI
CHEKLANGAN JAMIYAT**

STIR: 310643025

**Davlat ekologik ekspertizasi mas'ul eksperti: XOLIYAROV BAXTIYAR
ABDURAXMANOVICH**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovaga muvofiq, ushbu davlat ekologik ekspertizasi obyekti atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning III toifa toifasining 43-bandiga mansub.

O'tkazilgan davlat ekologik ekspertizasi natijasi: **Ijobiy xulosa**

Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi: **Illovasiz huquqiy hujjat hisoblanmaydi**

Berilgan sana: 20.01.2025

Amal qilish muddati: 20.01.2028

Ekologik ekspertiza obyektining ekologik talablarga muvofiqligi, joylashuv nuqtalari koordinatalari, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari, bajarilishi shart bo'lgan talablar va boshqalar to'g'risida ilovada keltirilgan O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Davlat ekologik ekspertiza markazi va filiallarining ekspert xulosasi ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasining ajralmas qismi hamda unda belgilangan talablar bajarilishi shart hisoblanadi.

Izoh: Buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rivoja etilmaganda, davlat ekologik ekspertizasi xulosasi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Direktor



A.Baxshiqulov

Davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo‘yicha Ekspert xulosasi talablari

Boysun tumani “Qo‘shshatut” davlat o‘rmon xo‘jaligi”ga:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PF-46-son Farmoniga asosan “Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va bo‘talar qimmatbaho navlarining kesilishiga moratori” joriy qilinganligi sababli, daraxtlarning noqonuniy o‘suvchanlik darajasiga shikas etkazish va kesilishiga yo‘l qo‘yilmasin;

Yuqori kuchlanishli nimstansiyalariga qushlarni tok urish natijasida nobud bo‘lish xavfi oldini olish uchun tok liniyalarga maxsus qushlar qo‘nish uskunasi o‘rnatalishi ta’mirlansin; (O‘zb.Res. “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi qonun 9, 21-moddasi talabi)

Toza texnologiyalardan samarali foydalanishda elektr energiyasini imkon qadar tejovchi va obyekt faoliyati jarayonida qo‘shimcha atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan energiya tejovchi muqobil energiyalardan foydalanishda quyosh panelli batareyalari o‘rnatalishini ta’minlash; (O‘z.Res. Prezidentining 2023-yil 16-fevraldaggi PQ-57-son qarori)

Qurilish obyektida ishlar yakunlangandan so‘ng buzilgan yerlar madaniylashtirilishi va elektr energiya ta’mnoti obyektlarining muhofaza mintaqasi bilan fuqarolar yashash uylari bo‘ylab oraliq masofa saqlanishi ta’minlansin; (O‘zb.Resp. “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi qonun 21-modda talabi)

Obyekt hududida hosil bo‘ladigan barcha chiqindilar belgilangan tartibda to‘planishi, saralanishi, olib chiqib ketilishi, zararlantirilishi, qayta ishlashga topshirilishi shart; (2023 yil 31 maydaggi PQ 171-son qarori, VM 2021 yil 28 yanvardagi VM 40-son qarori)

Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi shartlarining bajarilishi O‘zbekiston Respublikasi “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi qonunning 22-moddasi talablariga berilgan kundan boshlab 3 (uch) yil davomida yuridik kuchga yega;

Xulosa shartlarining bajarilish majburiyati O‘zbekiston Respublikasi “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi qonunning 9, 21-moddasi talablariga asosan majburiydir;

Nazorat uchun

Davlat ekologik ekspertizasi markazi DM Surxondaryo viloyat filialiga taqdim etilgan Boysun tumanidagi “Qo‘sishhatut” davlat o‘rmon xo‘jaligi”ning ko‘kalamzorlashtirish hududini “Sug‘orish” qudug‘i tarmog‘i qurilishining *Atrof muhitga ta’sir ko‘rsatilishi to‘g‘risidagi bayonot loyihasini maqullaydi.*

Surxondaryo viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi: Boysun tumanidagi “Qo‘sishhatut” davlat o‘rmon xo‘jaligi”ning ko‘kalamzorlashtirish hududini “Sug‘orish” qudug‘i tarmog‘i qurilishi to‘g‘risida ishlab chiqilgan Atrof muhitga ta’sir ko‘rsatilishi to‘g‘risidagi bayonot loyihasi va davlat ekologik ekspertizasi xulosasida keltirib o‘tilgan ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga oid chora-tadbirlarni o‘z vaqtida bajarilishini nazoratga olishi talab etiladi.



Ma’sul ekspert: XOLIYAROV BAXTIYAR ABDURAXMANOVICH

Obyekt haqida qisqacha ma'lumot

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Davlat ekologik ekspertizasi markazi Surxondaryo viloyati filialiga taqdim etilgan Boysun tumanidagi "Qo'shshatut" davlat o'rmon xo'jaligi"ning ko'kalamzorlashtirish hududini "Sug'orish" qudug'i tarmog'i qurilishining atrof-muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonot loyihasi O'zbekiston Respublikasi "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi qonunga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentyabrdagi 541-sonli qaroriga 2-ilova "Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida"gi Nizom va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida o'rganib chiqildi.

Taqdim etilgan mazkur loyiha hujjatlarda obyektni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-sentabrda №102/13-son qaroriga muvofiq rejalashtirilgan.

Sug'orish tarmog'inining suv qudug'i joylashgan bino va inshootlari yer maydoni uchastkasining "Google" ko'rinishdagi ko'chirma surati asosida geografik koordinat nuqtalari $38^{\circ}11'07.08''\text{ShK}$ $67^{\circ}08'44.28''\text{ShU}$ tashkil etadi.

Qurilishi rejalashtirilgan sug'orish suv ta'minoti manbayi joylashgan yer maydoni uchastkasi atrofdan quyidagicha chegaralangan; - shimoldan-janubdan – g'arbdan bo'sh yer maydonlari va sharqdan avtomobil yo'li bilan chegaralangan. Obyektga eng yaqin aholi turar-joylari 3,0 km oraliq masofada chegaralanishi bayon etilgan.

Mazkur loyihani ishlab chiqishdan maqsad qurilishi mo'ljallangan Boysun tumanidagi "Qo'shshatut" davlat o'rmon xo'jaligi"ning ko'kalamzorlashtirish hududining sug'orish tarmog'ini atrof-muhitga ko'rsatadigan ta'sirini baholashdan iboratdir.

Loyihada, sug'orish suv manbayi qudug'i qurilishi Boysun tumanidagi "Qo'shshatut" davlat o'rmon xo'jaligi"ning ko'kalamzorlashtirish hududining 5,0 hektar yer maydonini sug'orish uchun mo'ljallangan.

Loyihada obyekt joylashgan mintaqaning iqlimi, fizika-geografik tafsilotlari hamda atrof muhitning hozirgi holati yoritilgan.

Loyiha bo'yicha obyektning sug'orish suv qudug'i inshootlari qurilishida barcha yer osti komunikatsiyalari (elektr kabellari, telefon kabellari, mavjud suv quvurlari, oqova quvurlari va boshqalar) ularning egalari bilan kelishilgan holda va ish bajarilayotgan davrda mutaxassislar ishtirokida ish bajarilishi rejalashtirilgan.

Qurilish obyektida 5 kishi ishlashi, ish tartibi kuniga 6 soat/kun va yiliga 150 kun ishlashi bayon etilgan.

Loyiha bo'yicha, obyektda qurilish montaj ishlarini olib borilishi uchun yer maydoni va doimiy foydalanish uchun yer maydon ajratilishi rejalashtirilgan bo'lib, ishchi loyiha bo'yicha quyidagi ishlar bajarilishi, 1 dona yer osti qudug'i, uychalar kaskadini himoyalash qurilmalari, quvvati $Q=6,3 \text{ m}^3/\text{soatl}$ bo'lgan bir dona suv olish nasosi qurilmasini o'rnatish, qishloq tipidagi 35 kVa -KTPS -10/0,4 – 1 jamlanma qurilmasi o'rnatilishi, tayanchlar o'rnatilishi bayon etilgan.

Loyihada, rejalashtirilgan burg'u sug'orish qudug'ining suv sarfi miqdori 6,3 l/sek.ni tashkil etadi.

Loyiha bo'yicha ko'kalamzorlashtirish hududini sug'orishda foydalaniladigan yer osti qudug'ining 120 metr ququrlikdagi suv chiqarish unumдорligi $6,3 \text{ m}^3/\text{soat}$ bo'lgan ESV-4-435 rusumli nasosi o'rnatilishi bayon etilgan.

Loyihada atrof-muhit atmosfera havosini ifloslantirish manbasiga qurilishi rejalashtirilayotgan suv quvuri tizimi, burg'u qudug'ini qazish va bir dona suv minorasi o'rnatish paytida mashina va mexanizmlarning ishlashi natijasida atmosfera havosiga ma'lum miqdorda noorganik changlar, uglerod oksidi, azot dioksidi, uglevodorodlar, oltingugurt angidridi, tutunlar va benz(a)piren ifloslantiruvchi moddalar chiqariladi.

Obyektda atmosfera havosiga metall payvandlash vaqtida chiqindi chiqadi. Payvandlash jarayonida temir oksidi, marganes oksidi hosil bo'lishi hisobga olingan bo'lib, qo'zg'aluvchan manbadan atrof-muhitga kam miqdorda bo'lganligi uchun atmosfera havosiga ta'siri kam darajada bo'ladi.

Obyektda tuproq qatlarni muhofaza qilish maqsadida GOST 17.4.3.02-85 va GOST 17.5.3.06-85 "Oxrama prirodu. Zemlya" davlat standartlarida ko'rsatilgan talablar asosida tadbirlar bajarilishi lozim.

Loyihada, yer ishlarini bajarishda chuqurligi 10 metr yer qatlami texnik rekultivatsiya qilishda quyidagi ishlar: -rekultivatsiya qilinadigan maydonga bir tekisda tuproqlarni yoyib chiqish yoki maxsus ajratilgan joyga transportirovka kilish, chuqurliklarni tekislash, erozion jarayonlarni bartaraf qilish, agrokimyo va sanitarn-epidemiologik xizmat idoralardan toksik moddalar xavfi mavjud emasligi bo'yicha xulosa olish ko'zda tutilgan. Yerlarni madaniylashtirishning biologik bosqichi aerotexnik va fito-meliorativ ishlarni o'z ichiga oladi. Biologik boskich texnik rekultivatsiya tugagandan so'ng, asosiy yerdan foydalanuvchilar tomonidan o'tkaziladi va komissiya dalolatnomasiga asosan qabul qilinadi.

Loyihada obyektning suv ta'minoti, ishchilar ichimlik suv idlislarda olib kelinishi, 5 hektar sug'oriladigan yer maydonining suv sarfi miqdori kuniga $6 \text{ soat}/\text{kun}.ni$ va 150 kun/yilni tashkil etib, burg'u quduqlari faoliyatida 1 kishi faoliyat ko'rsatishi bayon etilgan. Obyektning ichimlik suv ta'minoti sarfi kuniga $0,025 \text{ m}^3/\text{kun}$ yoki $0,00375 \text{ ming.m}^3/\text{yilni}$ tashkil etadi.

Obyekt qurilishida chiqariladigan 5-4-sinf chiqindilarning umumiyl miqdori $0,60625 \text{ t/yil}$ hamda obyekt faoliyatida $30,05 \text{ t/yil}$ tashkil etadi. Obyektda hosil

bo‘ladigan 4-sinfga mansub 0,03 dona/yil miqdordagi chiroq chiqitlari alohida joyda saqlanib qayta ishlash korxonasiga topsharilishi bayon etilgan. Maishiy qattiq chiqindilarni to‘plash uchun alohida joy ajratib, keyin chiqindixonaga joylashtirilishi bayon etilgan.

Loyihada suv olish inshootlarini muhofaza qilish, tuproq va ochiq suv havzalarini, atmosfera havosini ifloslanishini oldini olish, shovqin va tebranishni pasaytirish hamda zilzilaga qarshi chora-tadbirlar rejasи ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari loyihada suv quvurlarining zanglashi va chirishiga qarshi chora-tadbirlar ham ishlab chiqilgan.

Loyihada, suv ta’mnoti quvuri qurilishida undagi barcha yer qazish ishlarida unumdar tuproq qatlami sidirib olinib, vaqtincha bir chekkaga yig‘ib qo‘yish va madaniylashtirish (rekultivatqiya) paytida ishlatish ko‘zda tutilgan.

Loyihada obyekt ish faoliyatida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan halokatli holatlar ta’riflanib, ularning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan.

Davlat ekologik ekspertiza taxlili shuni ko‘rsatadiki, loyiha obyekti hayotga tadbiq etilishi bilan atrof-muhitning yaxshilanishini ta’kidlagan holda, unda ko‘zda tutilgan atrof-muhit muhofazasiga doir tadbirlar obyekt qurilishi jarayonida amalga oshirilsa, mazkur obyekt faoliyati atrof-muhitning xozirgi holatiga sezilarli o‘zgarish olib kelmaydi.

Mazkur loyiha xarakatdagi me’yoriy va rahbariy xujjatlar talablari asosida ishlab chiqilgan.



Ma’sul ekspert: XOLIYAROV BAXTIYAR ABDURAXMANOVICH